

## KREATIVLIKNING MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI

Tashmatova Shalola Ravshanbekovna

Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

[shalolatashmatova1987@gmail.com](mailto:shalolatashmatova1987@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativlikning inson rivojlanishiga va uning shaxsiyatiga ta'siri masalalari yoritilgan bo'lib, bu masalada ko'plab olimlarning fikrlari va mulohazalari ham o'rinn egallagan. Kreativlikni rivojlantirishda g'oyaviy sermahsullikning ahamiyati va kreativlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan.*

**Калит со'злар:** Kreativlik, ijodkorlik, turlicha fikrlash, fikrlash qobiliyatları, g'oyaviy sermahsullik, ijodiy strategiyala, ijodiy yondoshish.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье освещаются вопросы развития навыков творческого мышления учащихся, влияние творчества на развитие человека и личности, а также в этом вопросе имели место мнения и мнения многих ученых. Даны значение мыслительной продуктивности в развитии творчества и предложения по развитию творчества.*

**Ключевые слова:** Креативность, творчество, иное мышление, навыки мышления, творческая стратегия, творческий подход.

### ANNOTATION

*In this article, the issues of development of students' creative thinking skills, the impact of creativity on human development and personality are highlighted, and the opinions and opinions of many scientists have taken place in this issue. The importance of ideational productivity in the development of creativity and proposals for the development of creativity are given.*

**Key words:** Creativity, thinking differently, thinking skills, creative strategy, creative approach.

Ta'larning zamонавија globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvi innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda

mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, uchinchi renesans davrida jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lif tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potensiali, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim.

Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to'liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to'plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mohiyatini tushunishga yetarli emas. Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsi tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o'rghanuvchi alohida yo'naliish - ijodkorlik psixologiyasi yo'naliishi vujudga keldi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ likni o'rghanishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o'rganilishi M.S.Bemshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G. Yudin va boshqalar nomi bilan bog'liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo'naliishi ustida g'arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Chet el olimlarning kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va iimumlashtirib R.Xameni yozadi: "Kreativlik o'zida yangicha yo'sinda amalga oshirilgan o'zlashtirish to'lqinini, yangicha aloqadorliklarni aniqlash, yangicha munosabatga kirishish, yangiliklar, ongning yangicha e'tirozlariga sabab bo'luvchi faoliyatidir ". Ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o'ziga xosligi va xususiyatlariga etibor qaratadilar. J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida

namoyon bo‘ladi. E.Torrens kreativlikni yechimlami topishda bilimlaming yetarli bo‘lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi indentifikasiya va taxminlaming shakllanishi, yechimlaming topilish jarayoni deb qaraydi.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zim rivojiantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlaming ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplami yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolami yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo‘ladi.

Pedagogika va psixologiyadagi kreativlik tabiatiga uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlami umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: bu hodisa yaxlit va tuzilish jihatdan tushunish uchun yagona tushunchalar tizimi mavjud emas. Inson shaxsida kreativlik, uning darajasi, tuzilishi va o‘ziga xosligi inson individualligining boshqa bir jihatini o‘zlashtirish jarayonining o‘ziga xosligi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Bu bog‘liqlikni tasniflash kreativlik hodisasining kelajakda o‘rganilishi kutilayotgan yangi bir yo‘nalishidir. Kreativlikni intellektual kreativlik va ijtimoiy kreativlikka bo‘lish mumkin. Intellektual kreativlik analiz va sintezdan iborat. Analiz va sintez qila olish qobiliyati umumiyligi intellektning asosidir. Ijtimoiy kreativlik o‘zida kasbiy kreativlikni mujassamlashtiradi, uning ko‘pgina turlari orasida pedagogik kreativlik ham mavjud. Pedagogik kreativlik kommunikativ va didaktik kreativlikdan iborat. Didaktik kreativlik o‘zida intellectual boyliklarga intilish va shu bilan birga novatorlik qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ va didaktik kreativlik pedagogik qobiliyatning asosi hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat ijodkorlik qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi va o‘z navbatida ichki sezishni rivojlantiradi. Pedagogik ijodkorlik qobiliyati, ichki sezish va umumiyligi intellekt kesishganda ijod mahsuli yaratiladi.

Olimlar pedagogik mahoratning quyidagi uch darajasini ko‘rsatadilar: birinchi daraja - bu sinf bilan elementar munosabat. O‘qituvchi teskari aloqani qo‘llaydi, uning natijasiga ko‘ra o‘z harakatlarini belgilaydi. Lekin bu faoliyat metodik qo‘llanmalar yoki boshqa o‘qituvchi tajribasi asosida amalga oshiriladi. Ikkinci daraja dars faoliyatini, uning rejasini tuzishdanoq optimallashtirish bosqichidir. Bunda ijodkorlik o‘qituvchiga ma’lum maqsadni amalga oshirishda mazmun, metod va shakllami to‘g‘ri tanlashdan iborat. Uchinchi daraja - evristik. Pedagog o‘quvchilar bilan jonli muloqotning ijodiy imkoniyatlarini qo‘llaydi. O‘qituvchining eng yuqori darajadagi ijodkorligi uning to‘liq mustaqil faoliyatida namoyon bo‘jadi. U avvaldan ma’lum bo‘lgan usullami qoilashi mumkin, ammo u ularga o‘zining shaxsiy munosabatini qo‘llaydi. O‘qituvchi ijodiy individualligi, tarbiyalanuvchining shaxsiy o‘ziga xosligi, ta’limning aniq darajasi, tarbiyalanganlik darajasi, sinfiising rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zaruriyat taqozo etgan darajada ish olib boradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, pedagog faolligining borgan sari yuqoriqoq darajadagi faoliyatga ko‘tarilib borishi kelajakda innovatsion ta’lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

### ***ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Ishmuhamedov R, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.” (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2017, 366 bet.
2. R.Mavlonova, N.Raxmankulova, N.Vohidova. “Pedagogika nazariyasi va tarixi.” Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
3. Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, <http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247>.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.